



LIDERLIK VA UNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

University of business and science

Psixologiya yo'nalishi 23-34 guruh talabasi

Jabborova Dildora Baxtiyor qizi

Ilmiy raxbar: Jurayev Xaydarjon Odilboyevich

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2585-8439>

Annotatsiya: Mazkur maqolada liderlik tushunchasi, uning psixologik mohiyati hamda lider shaxsiga xos asosiy psixologik xususiyatlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, liderlikning shaxs rivojlanishi va jamoaviy faoliyatdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: liderlik, shaxs, psixologik xususiyatlar, motivatsiya, muloqot, empatiya, ijtimoiy ta'sir.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически анализируется понятие лидерства, его психологическая сущность, а также основные психологические особенности личности лидера. Также будет освещена важность лидерства в личностном развитии и командной деятельности.

Ключевые слова: лидерство, личность, психологические характеристики, мотивация, общение, эмпатия, социальное влияние.

Kirish

Hozirgi globallashuv va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan yetuk, mas'uliyatli va tashabbuskor shaxslarga, ya'ni liderlarga bog'liqdir. Shu sababli liderlik fenomeni psixologiya fanida dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Liderlik nafaqat boshqaruv lavozimi, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik sifatlari majmui sifatida qaraladi. Psixologiyada liderlik



shaxsning guruh a'zolariga ta'sir o'tkazish, ularni umumiy maqsad sari yo'naltirish va rag'batlantirish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Liderlik tushunchasining psixologik talqini ilmiy adabiyotlarda liderlik tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, K. Levin liderlikni guruh ichidagi ijtimoiy ta'sir mexanizmi sifatida izohlaydi. R. Stogdill esa liderlikni shaxsiy xususiyatlar va vaziyat omillarining o'zaro ta'siri natijasi deb hisoblaydi. Psixologik nuqtayi nazardan, liderlik bu, shaxslararo munosabatlar jarayoni, ijtimoiy ta'sir ko'rsatish shakli, shaxsning ichki imkoniyatlarini namoyon etish vositasi. R. Stogdill esa liderlikni shaxsning individual xususiyatlari bilan bir qatorda vaziyat omillari bilan bog'liq hodisa sifatida talqin etadi. Uning fikricha, liderlik doimiy sifat emas, balki muayyan sharoitda shakllanuvchi ijtimoiy-psixologik jarayondir. Psixologik jihatdan liderlik quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:[10]

- shaxslararo ta'sir,
- ijtimoiy rol va maqom,
- psixologik autoritet,
- guruh ehtiyojlarini anglash va yo'naltirish.

Sh. Yuldashev fikriga ko'ra, tashkilotchilik qobiliyatlarning markaziy "o'zagi" bo'lib boshqara olish, ya'ni boshqa faoliyat turlaridan farqli ravishda, tashkilotchilik ishi uchun zarur bo'lgan murakkab xususiyat hisoblanadi. Bir qator olimlar liderlikni hodisa sifatida o'rganishning umumiy sxemasini bir necha analitik bloklar ko'rinishida taklif etib, ular mohiyatiga ko'ra liderlikning barcha muammolarini o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu sxema uchta asosiy bandni o'z ichiga oladi: tuzilish xususiyatlari (shaxs fazilatlarini); amalga oshirish mexanizmlari; borishi dinamikasi.

Ye. P. Ilin fikriga ko'ra, "lider" atamasi juda keng qo'llaniladi. Lider (leader) - inglizcha so'z bo'lib, "yetakchi, boshlovchi" deb tarjima qilinadi. Biroq, ijtimoiy psixologiyada u biroz boshqacha mazmun oldi. Shunday, lider deganda guruhdagi



shaxslararo (norasmiy yoki noformal) munosabatlarni tartibga soluvchi guruh a'zosi tushuniladi. Lider – “bu birgalikdagi faoliyatni tashkil etishda va guruhdagi munosabatlarni tartibga solishda haqiqatan ham markaziy rol o'ynaydigan avtoritet shaxsdir ba liderga xos bo'lgan ba'zi belgilar ajratib ko'rsatilishi lozim: lider (avtoritet) vaziyatiga ko'tarilgan guruhga mansubligi; o'z harakati bilan u guruh maqsadiga erishishga hissa qo'shadi. Mazkur belgi uch variantlidir: o'z harakatlari bilan u boshqalarga qaraganda guruh maqsadiga erishishga ko'proq hissa qo'shadi (masalan, ko'proq gol urgan); boshqa a'zolar tomonidan guruh maqsadiga erishishga hissa qo'shadi (darvozabon tomonidan muvaffaqiyatli qaytarilgan).





Liderlikning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati liderlik sifatlari shaxsning ijtimoiylashuvi, o'zini anglash jarayoni va professional rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. [9] Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, liderlik qobiliyatlari tug'ma bo'lishi shart emas, balki ta'lim, tarbiya va psixologik treninglar orqali shakllantirilishi mumkin.

Liderlik nazariyalarining qisqacha tahlili

Xususiyatlar nazariyasi - Bu nazariyaga ko'ra, liderlik tug'ma individual xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Masalan, yuqori intellekt, irodaviylik, ekstraversiya, o'ziga ishonch liderlik uchun muhim hisoblanadi.

Xulq-atvor nazariyasi - Ushbu yondashuv liderlikni shaxsning xatti-harakatlari orqali tushuntiradi. Ya'ni, lider qanday harakat qilishi va jamoa bilan qanday munosabat o'rnatishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Vaziyatli yondashuv - Bu nazariya liderlik samaradorligi vaziyatga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Bir shaxs bir vaziyatda lider bo'lishi mumkin, boshqa vaziyatda esa yetakchilikni yo'qotishi mumkin. [5]

Liderlikning shaxs va jamiyat rivojlanishidagi o'rni - Liderlik sifatlari shaxsning o'zini anglash jarayoni, ijtimoiy moslashuvi va kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, liderlikni rivojlantirish orqali shaxsda mas'uliyat, mustaqil fikrlash va jamoaviy hamkorlik kabi sifatlar shakllanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, liderlik bu shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi va emotsional holatining uyg'unlashuvi natijasida shakllanuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Samarali lider jamoani nafaqat boshqaradi, balki uni tushunadi, qo'llab-quvvatlaydi va rivojlanishga undaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jurayev, X. O. (2023). O 'SPIRINLIK YOSHIDA SHAXSDA STRESSLI VAZIYATLARDA INDIVIDUAL KOPING STRATEGIYALARNING O 'RNI VA AXAMIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 512-515.
2. Odilboyevich, J. X. (2025). O 'SMIRLARDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA UNING BOSHQA XULQ-ATVOR SHAKILANISHGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 59(2), 338-347.
3. Xusanovna, U. M., & Odilboyevich, J. X. (2026). YOSHLARNI YOT G'OYALARGA BERILISHIDA XARAKTER AKSENTUATSIYASINING TA'SIRINING PSIXOLOGIK JIXATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(3), 244-249.
4. Xabibullayevna, A. V., & Odilboyevich, J. X. (2026). O 'QUVCHI YOSHLAR ONGIDA KIBER XAVFSIZLIGI IMMUNITETINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(3), 230-235.
5. Odilboyevich, J. X. (2026). O 'SMIRLIK DAVRIDA XARAKTER AKSENTUATSIYASINI VA DEVIANT XULQ-ATVORNI KORREKSIYA QILISHDA ART-TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(3), 250-258.
6. Sahobiddinovna, M. O., & Odilboyevich, J. X. (2026). O 'SMIRLIK YOSH DAVRIDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA EMOTSIONAL MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(3), 259-264.
7. Odilboyevich, J. X. (2026). BOSHAQARUVDA JARAYONIDA QAROR QABUL QILISHDADI XARAKTER AKSENTUATSIYASINING



TUTGAN O 'RNI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 84(3), 216-222.

8. Odilboyevich, J. X. (2026). SHAXS XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA UNING MAVQEGA VA LAVOZIMGA INTILISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 84(3), 265-271.

9. Байкунусова, Г. Ю. (2018). ВИДЫ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАВИСТИ. In *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*. (pp. 138-141).

10. Yuldibayevna, B. G. (2020). Masofaviy ta'limdagi talaba shaxsini tarbiyalashda psixologik tavsiyalar. *Science and Education*, 1(1), 454-457.

11. Taskarayevna, N. Z., Yuldibayevna, B. G., Niyazova, N., Shehzadi, I., & Turayev, S. (2026). Pedagogical Transformations: Agentic AI as a Co-Teacher and Learning Partner. In *Multidisciplinary Perspectives on Agentic AI in Educational Systems* (pp. 63-86). IGI Global Scientific Publishing.

12. Gulmira, B. (2019). Semantic and psychological relationship of Envy and Jealousy. In *Bridge to science: research works* (pp. 174-176).